XALQ DEPUTATLARI UYCHI TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 29-dekabr VII-14-131-6-86-K/25 Uychi tumani

Uychi tumanining 2026-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2026 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuniga va xalq deputatlari Namangan viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-17-165-6-0-K/25-sonli qaroriga muvofiq hamda Namangan viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 29-dekabrdagi 02/10-7125-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Namangan viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-17-165-6-0-K/25-sonli qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, Uychi tuman byudjetining 2026-yilgi daromadlari **165 846,7 mln.so‘m** va xarajatlari esa **165 846,7 mln.so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi, shuningdek Uychi tuman byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **338,1 mln.so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman byudjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq, tuman byudjetidan 2026-yilda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq, tumani byudjetlari o‘rtasida ajratmalar normativlari belgilanadigan umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar, shuningdek, soliq bo‘lmagan to‘lovlar 3-ilovaga muvofiq hamda noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) 1 kub.metr hisobidan belgilangan qat’iy stavkalar 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun **2 161,9 mln.so‘m** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Q.Qo‘chqorov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (B.Xolmirzaev), tuman soliq inspeksiyasi (M.Qodirov) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

6. Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan byudjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

byudjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga byudjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda byudjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

byudjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

7. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi A.Abdullayev hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Q.Qo‘chqorov zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi **PARPIYEV A’ZAMJON G‘AYBULLAYEVICH**

Xalq deputatlari Uychi tumani Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-14-131-6-86-K/25 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Uychi tuman mahalliy byudjeti daromadlarining prognoz ko‘rsatkichlari

							ming so‘m
№	**DAROMAD TURLARI**	**Jami kontingent prognoz**	shundan,			**Mahalliy byudjet prognoz**	
			MRI	Hudud	shundan		
					DSB	DSI	
I.	**JAMI**	**274 077 650**	**11 415 000**	**262 662 650**	**212 413 000**	**50 249 650**	**165 846 680**
1	Foyda solig‘i	17 347 000		17 347 000	17 347 000		867 350
2	*Norezidentlar foydasidan soliq*	*226 000*		*226 000*	*226 000*		
3	Aylanmadan olinadigan soliq	8 440 000		8 440 000		8 440 000	7 596 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	99 266 000	2 767 000	96 499 000	89 326 000	7 173 000	87 009 100
	shundan, mol-mulkini ijaraga berishdan tushumlar	1 600 000		1 600 000	1 030 000	570 000	1 600 000

5	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	44 347 000		44 347 000	44 347 000		6 208 580
6	**Aksiz solig‘i**	**17 143 000**	**5 918 000**	**11 225 000**	**11 225 000**		**8 418 750**
	yakuniy iste’molchi (benzin,dizel va gaz uchun)	*17 143 000*	*5 918 000*	*11 225 000*	*11 225 000*		*8 418 750*
7	**Mol-mulk solig‘i**	**21 143 000**	**1 426 000**	**19 717 000**	**6 099 000**	**13 618 000**	**19 717 000**
	yuridik shaxslar	*8 943 000*	*1 426 000*	*7 517 000*	*6 099 000*	*1 418 000*	*7 517 000*
	jismoniy shaxslar	*12 200 000*		*12 200 000*		*12 200 000*	*12 200 000*
8	**Er solig‘i**	**32 410 650**	**1 295 000**	**31 115 650**	**11 024 000**	**20 091 650**	**31 115 650**
	yuridik shaxslar	*13 919 000*	*1 295 000*	*12 624 000*	*11 024 000*	*1 600 000*	*12 624 000*
	jismoniy shaxslar	*18 491 650*		*18 491 650*		*18 491 650*	*18 491 650*
9	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	406 000		406 000	406 000		406 000
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	3 625 000	9 000	3 616 000	2 916 000	700 000	2 282 600
11	**Boshqalar**	**29 724 000**		**29 724 000**	**29 497 000**	**227 000**	**2 225 650**
	DUK sof foydasidan ajratmalar	*165 000*		*165 000*	*165 000*		
	Davlat boji	*14 824 000*		*14 824 000*	*14 824 000*		*741 200*
	Yig‘imlar	*3 867 000*		*3 867 000*	*3 867 000*		*193 350*

	Jarimalar	*10 641 000*		*10 641 000*	*10 641 000*		*1 064 100*
	Davlat mulkini ijarasi	*227 000*		*227 000*		*227 000*	*227 000*

Xalq deputatlari Uychi tumani Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-14-131-6-86-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun Uychi tuman mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

№	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Uychi tumani
	Xarajatlar miqdori, jami	**165 846 680**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	*64 424 242*
	shundan:	
	"Mening maktabim"	*2 842 800*
3	Madaniyat bo‘limi	*5 981 494*
4	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	*6 458 715*
5	Sport bo‘limi	*13 628 082*
6	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	*1 411 205*
7	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	*3 101 127*
8	Irrigatsiya bo‘limi	*2 574 367*
9	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	*2 369 220*
9	Ijtimoiy ximoya milliy agentligining hududiy bo‘limi *Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari*	*185 949*

10	Hokimiyat	*44 362 666*
	shundan:	
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*25 626 928*
	"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*1 485 000*
	Zahira jamg‘armasi	*2 161 894*
11	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	*947 331*
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*131 692*
	Axborot-kutubxona markazlari	*815 639*
12	Obodonlashtirish boshqarmasi	20 402 282
13	Boshqa tashkilotlar	0

Xalq deputatlari Uychi tumani Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-14-131-6-86-K/25 -son qaroriga
3-ilova

2026-yil uchun Namangan viloyatining viloyat, shahar va tumanlar byudjetlari o'rtasida belgilanadigan umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to'lovlar ajratma me'yorlari

Foiz xisobida

Hududlar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i				Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan				QQS				Foyda solig'i				benzin, dizel yoqilg'isi va gazni oxirgi iste'molchiga realizatsiya qilishda to'lanadigan aksiz solig'i			
	Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga	
	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB
Uychi tumani	0 %	90 %	100 %	10%	100 %	100%	0%	0%	0%	70%	100%	30%	0%	5%	100%	95%	0%	75%	100%	25%

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i	Qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq

Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga	
MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB
0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%

Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar				Aylanmadan soliq		Davlat boji		Jarima		Yig‘imlar	
Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga
MRI	DSB	MRI	DSB								
0%	0%	100%	100%	90%	10%	5%	95%	10%	90%	5%	95%

Xalq deputatlari Uychi tumani Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-14-131-6-86-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Uychi tumanida noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) 1 kub.metr hisobidan belgilangan qat’iy stavkalar

T/r	Hududlar	qurilish qumi, qumtoshlar, qum-shag‘al aralashmasi		Granitlar		Marmar		Tabiiy bezaktoshdan bloklar		Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig‘anoq, ohaktosh (sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosienitlar, sienitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	
		Koeffi-sient	Mutloq qiymat	Koeffi-sient	Mutloq qiymat	Koeffi-sient	Mutloq qiymat	Koeffi-sient	Mutloq qiymat	Koeffi-sient	Mutloq qiymat

	Bazaviy stavka		5 350,0		32 100,0		21 400,0		10 700,0		6 591,0
1	Uychi tumani	1,30	6 955,0	1,20	38 520,0	1,20	25 680,0	1,20	12 840,0	1,20	7 909,2